

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN INNOVATSION PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Masharipova Unsunoy Madamin qizi

Urganch davlat pedagogika instituti

“Boshlang'ich ta'lim” fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

3-kurs 236-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19382828>

Annotatsiya : Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini, har tomonlama chuqur tafakkur va idrokni shakllantirishga yo'naltirilgan innovatsion pedagogik yondashuvlarning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari yoritilgan. Kreativ tafakkurni rivojlantirishda muammoli ta'lim, loyihaviy faoliyat, STEAM yondashuvi, raqamli texnologiyalar va o'yinli metodlarning o'rni va natijalari yoritilib o'tilgan. Shuningdek, o'qituvchining innovatsion kompetensiyasining bu jarayondagi ahamiyati, har bir o'quvchiga alohida yondashish orqali dars jarayonlarini tashkillashtirish, o'quvchilarga beriladigan bilimlarning har birining negizida fikrlashga kreativ yondashishga o'rgatuvchi metodlar, usullar va texnologiyalar bilan tashkillashtirishning ahamiyati yoritilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kreativ fikrlash, innovatsion pedagogika, boshlang'ich ta'lim, tafakkur, muammoli ta'lim, loyihaviy metod, STEAM.

Abstract: This article highlights the theoretical foundations and practical opportunities of innovative pedagogical approaches aimed at developing students' creative thinking, as well as their comprehensive reasoning and perception skills, at the primary education level. The role and outcomes of problem-based learning, project-based activities, the STEAM approach, digital technologies, and game-based methods in fostering creative thinking are analyzed. In addition, the importance of teachers' innovative competencies in this process, organizing lessons through an individualized approach for each student, and structuring learning with methods, techniques, and technologies that promote creative thinking are discussed.

Keywords: creative thinking, innovative pedagogy, primary education, reasoning, problem-based learning, project-based method, STEAM.

Аннотация: В данной статье рассмотрены теоретические основы и практические возможности инновационных педагогических подходов, направленных на формирование у учащихся креативного мышления, глубокого мышления и восприятия в процессе производственно-ориентированного обучения. Проанализированы роль и эффективность проблемного обучения, проектной деятельности, STEAM-подхода, компьютерных технологий и игровых методов в развитии креативного мышления. Также раскрыто значение инновационной компетенции учителя, индивидуального подхода к каждому ученику, а также применение методов и технологий, способствующих развитию креативного мышления в учебном процессе.

Ключевые слова: креативное мышление, инновационная педагогика, производственно-ориентированное обучение, мышление, проблемное обучение, проектный метод, STEAM.

Zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilarda nafaqat tayyor bilimlarni egallash, balki ularni mustaqil tahlil qilish, yangilik yaratish va ijodiy fikrlashga o'rgatishni maqsad qilib qo'ymoqda.

Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchi tafakkurining poydevori shakllanadigan muhim davr sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun bu davrda o'quvchilarning har bir qobiliyati, qiziqishi, bilish jarayonlari va fikrlash qobiliyatidagi har bir yangilik, o'zgarish va savollarni ko'zdan qochirmay aniq, lo'nda va tizimli tarzda o'quvchi xayolidagi bo'shliqlarni uzluksiz to'ldirishimiz lozim

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yangi O'zbekistonni barpo etish uchun har bir fuqaroning ijodkorlik salohiyati va yangicha fikrlashi zarur" yoki "Ta'lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi" degan so'zlar ta'birida ham juda ulkan ma'no yashirindir.

Kreativ fikrlash (lot. creatio — yaratish) — bu inson tafakkurining yangi g'oyalar, yechimlar va konsepsiyalar ishlab chiqish qobiliyatini ifodalovchi jarayon.

Shuningdek, kreativlik inson tafakkurining divergent shakliga asoslanadi, ya'ni muammoga turli yo'llar orqali yechim topish qobiliyatini bildiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tabiatan faol, qiziquvchan va tasavvurga boy bo'lganliklari sababli ularning kreativ salohiyatini to'g'ri yo'naltirish katta ahamiyatga ega.

Innovatsion pedagogika — bu ta'lim jarayoniga zamonaviy metodlar, texnologiyalar va g'oyalarni joriy etish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan tizimdir. U o'quvchining faolligini, mustaqil fikrlashini va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'limda bu jarayon quyidagi yondashuvlar orqali amalga oshiriladi:

a) Muammoli ta'lim texnologiyasi-muammoli vaziyatlar yaratish orqali o'quvchini fikrlash jarayoniga faol jalb etadi. Masalan, "Nega?", "Qanday qilib?", "Agar shunday bo'lsa, nima yuz beradi?" kabi savollar bolani izlanishga undaydi. Bu usul tafakkurning mantiqiy va analitik yo'nalishlarini faollashtiradi. O'quvchida har qanday vaziyatlarga yechim topish imkonini yaratishfa katta ahamiyat kasb etadi.

b) Loyihaviy (proyektili) metod-o'quvchilarda kichik guruhlarda yoki individual tarzda o'tkazish mumkin. Bu jarayon ularning rejalashtirish, tahlil, ijodiy yechim topish va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. "Mening orzu maktabim", "Tabiatni asraymiz" kabi loyihalar bunga misol bo'la oladi. Bu loyihalar davomida o'quvchilar fikrlarni o'rtaga tashlab, jamoada bir biriga bo'lgan hurmat, mehribonlik va do'stlik tuyg'ularini uyg'unlashtirib bir jamoa bo'lib uyg'unlashishadi.

c) STEAM-ta'lim (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics)-STEAM yondashuvi fanlararo integratsiyaga asoslanadi. U nafaqat texnik tafakkurni, balki estetik va ijodiy qarashlarni ham rivojlantiradi. Bu orqali o'quvchilarning estetik didi, faol fikrlash qobiliyati va chuqur tafakkur qilish iste'dodlari hosil qilinadi. STEAM ta'lim jarayonida o'quvchilar bir fan doirasida boshqa fanlarni ham yaxlit, uyg'un tarzda egallab olishadi.

d) O'yinli va interfaol texnologiyalar-o'yin faoliyati kichik yoshdagi bolalar tafakkurining tabiiy shakli bo'lib, unda o'rganish jarayoni quvonch, raqobat va qiziqish asosida kechadi. Didaktik o'yinlar, rolli o'yinlar, kvestlar o'quvchilarni erkin fikrlashga va ijodkorlikka undaydi.

e) Raqamli ta'lim texnologiyalari-multimedia resurslar, interaktiv dasturlar va onlayn platformalar yordamida o'qitish o'quvchilarning vizual va mantiqiy fikrlashini faollashtiradi, ularni hozirgi zamon talabiga moslab tarbiyalaydi.

Kreativ fikrlashni shakllantirish jarayonida o'qituvchi — yo'naltiruvchi, motivator va jarayonni yengillashtiruvchi sifatida muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi o'quvchilarda mustaqil fikr

bildirish qobiliyatini, tanqidiy va ijodiy tafakkur o'rtasidagi muvozanatni, saqlagan holatda qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Yangicha pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etgan holatda malakali o'qituvchi dars jarayonlarida har bir o'quvchining faolligiga alohida e'tiborga olib tashkillashtirsa, o'quvchilarda qiziqish ortib har bir mashg'ulotga o'zgacha shukuh bilan yondashadi. Fikrlashdagi kreativlik oshishidagi birinchi omil vazifasini ham bajaradi. Shuningdek, o'qituvchi o'zining axborot-kommunikatsiya madaniyatini doimiy rivojlantirib borishi lozim. Bu orqali o'quvchilar bilan samimiy va ochiq muloqotni yo'lga qo'yishi yanada yengillashadi. O'quvchilar bilan doimiy muloqotda bo'lish, yangi axborotlarni o'quvchilarga tushunarli tarzda yetkazib berish malakali pedagoglarimiz qo'lidadir.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish – zamonaviy pedagogikaning hamda hozirgi zamonamizning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Innovatsion yondashuvlar orqali ta'lim jarayoni o'quvchining faolligiga, mustaqilligiga va ijodiy salohiyatiga tayangan holda tashkil etiladi. Har bir o'quvchi fikr mulohazalari e'tiborga olingan holatda tashkil etilgan dars jarayoni samarali bo'lib, o'quvchida fikr bildirishga bo'lgan qiziqishni yanada orttirib, fikrlash doirasini kengayishiga yordam beradi. Shunday ekan, o'qituvchining professional innovatsion kompetensiyasi, yangi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish qobiliyati va ijodkorlik madaniyati o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirishning asosiy garovi hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Shavkat Mirziyoyev, maktab ta'limini rivojlantirish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishida, 28 yanvar 2022.
2. Xodjayev B. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. — Toshkent: Innovatsiya, 2021.
3. Mavlonova R.A., To'rayeva O. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2019.
4. Yunusova M.X. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.